

THE LINGUISTIC OCCURRENCE OF PRAGMATIC PURPOSE IN THE TEXT OF FRENCH RECOMMENDATIONS

Khurshid FAYZULLAEV

Doctoral student (PhD)
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan

FRANSUZ TILIDAGI TAVSIYANOMALAR MATNIDA PRAGMATIK MAQSADNING LISONIY VOQELANISHI

Xurshid Ismatilla o'g'li FAYZULLAYEV

Tayanch doktorant
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ ЦЕЛИ В ТЕКСТЕ РЕКОМЕНДАЦИЙ НА ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Хуршид ФАЙЗУЛЛАЕВ

Докторант (PhD)
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Самарканд, Узбекистан xurshidjonfayz@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Fayzullayev X.I. Fransuz tilidagi tavsiyanomalar matnida pragmatik maqsadning lisoniy voqelanishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 1. — B. 101-114.

<https://doi.org/10.36078/1742364566>

Received: December 23, 2024

Accepted: February 17, 2025

Published: February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article discusses how pragmatic goals are expressed in French letters of recommendation and the problems associated with this. In particular, the pragmatic goal and its role in official texts are analyzed based on the ideas and examples presented by linguists. The implementation of communicative goals in official documents depends on the correct selection of linguistic units and the effective use of speech strategies. Therefore, using pragmatic analysis, special attention is paid to the methods and means used by the speaker or author of the document to achieve the goal. The article also examines the interrelationships between initial and final goals, based on intensive analysis methods put forward by linguists. In particular, the linguistic units used to provide information about the positive qualities of candidates and recommend them through selected letters of recommendation are analyzed, and positive information about the candidate's professional qualifications, successes, and future activities is presented. In general, the article focuses on the linguistic strategies of official and departmental documents in expressing pragmatic goals, not only in terms of transmitting information, but also in terms of achieving the addressee's resulting goals.

Keywords: official documents; recommendation letter; pragmatolinguistics; pragmatic purpose (intention); illocutionary act.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilidagi tavsiyanomalarda pragmatik maqsadlarning qanday ifodalanganligi va bu bilan bog'liq muammolar haqida so'z yuritiladi. Xususan, pragmatik maqsad va

uning rasmiy matnlardagi o'rni tilshunoslar tomonidan keltirilgan fikrlar va misollar asosida tahlil qilingan. Rasmiy hujjatlarda kommunikativ maqsadlarning amalga oshirilishi til birliklarining to'g'ri tanlanishi va nutqiy strategiyalarning samarali qo'llanilishiga bog'liq. Shunday ekan, pragmatik tahlil yordamida so'zlovchi yoki hujjat muallifining maqsadga erishish uchun qanday usul va vositalar qo'llayotganiga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada, tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan intensiv tahlil usullariga asoslangan holda, boshlang'ich va natijaviy maqsadlarning o'zaro aloqalari ham ko'rib chiqilgan. Xususan, tanlangan tavsiyanomalar orqali nomzodlarning ijobiy hislatlari haqida ma'lumot berish va ularni tavsiya etish uchun qo'llaniladigan lisoniy birliklar tahlil qilingan va nomzodning kasbiy malakasi, muvaffaqiyatlari va kelajakdagi faoliyatiga oid ijobiy ma'lumotlar keltirilgan. Umuman olganda, maqolada rasmiy-idoraviy hujjatlarning pragmatik maqsadlarni ifodalashdagi nafaqat ma'lumotni uzatish, balki adresantning natijaviy maqsadlarni amalga oshirish yo'lidagi lisoniy strategiyalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: rasmiy-idoraviy hujjatlar; tavsiyanoma; pragmalingvistika; pragmatik maqsad (intensiya); illokutiv akt.

Аннотация. В статье рассматривается, как прагматические цели выражены во французских рекомендациях и проблемы, связанные с этим. В частности, на основе идей и примеров, представленных лингвистами, анализировалась прагматическая цель и ее место в официальных текстах. Реализация коммуникативных целей в официальных документах зависит от правильного подбора языковых единиц и эффективного использования речевых стратегий. Поэтому с помощью прагматического анализа особое внимание уделяется тому, какие методы и инструменты использует говорящий или автор документа для достижения цели. В статье на основе предложенных лингвистами методов интенсивного анализа также рассматриваются взаимосвязи исходных и результирующих целей. В частности, были проанализированы языковые единицы, используемые для предоставления информации о положительных качествах кандидатов и их рекомендации через выбранные рекомендательные письма, а также представлена положительная информация о профессиональной квалификации кандидата, успехах и будущей деятельности. В целом в статье особое внимание уделяется языковым стратегиям официально-ведомственных документов при выражении прагматических целей не только в передаче информации, но и в способе реализации результирующих целей адресата.

Ключевые слова: официально-ведомственные документы; рекомендательное письмо; прагмалингвистика; прагматическая цель (намерение); иллокутивный акт.

Kirish

Hozirgi kunda pragmalingvistika doirasida keng o'rganilayotgan masalalardan biri pragmatik maqsad (intensiya)ni rasmiy nutq matnlarida tahlil qilish va o'rganishdir. Bu esa tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Lingvistikada *intensiya* tushunchasi soʻzlovchining nutqiy moʻljali, fikrni ifodalash maqsadi va ushbu fikr orqali erishilishi mumkin boʻlgan natija sifatida talqin etiladi. Intensiya fikrning ifodalanishidan oldin strategik reja sifatida shakllanadi va yuzaga keladi. Soʻzlovchi ongida, oʻz maqsadi va kutilayotgan natija xususiyatlarini inobatga olgan holda, nutqiy harakatlar uchun reja tuziladi. Ushbu reja asosida soʻzlovchi til birliklarini tanlaydi va ulardan foydalanadi. Shu bilan birga, oʻz fikrlarini aniq va tushunarli yetkazish, muloqotni samarali tashkil etish uchun mavzuga tegishli boʻlgan boshqalarning fikrlariga ham murojaat qilishi mumkin. Bunda kommunikativ kompetensiya katta ahamiyatga ega boʻlib, aynan shu qobiliyat soʻzlovchiga til vositalaridan toʻgʻri foydalanish orqali maqsadga erishishni taʼminlaydi [Pardayev 2013: 53]. Ushbu tushuncha ilmiy atama sifatida ilk bor pragmalingvistika fani rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshgan va nutqiy aktlar nazariyasini yaratgan tadqiqotchi J. O. Ostin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U oʻzining *“How to Do Things with Words”* (*Soʻzlar bilan qanday muomalada boʻlmoq darkor?*) asarida tilni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki harakatga undovchi vosita sifatida ham koʻrib chiqadi. U *lokutiv*, *illokutiv* va *perlokutiv* aktlar tushunchalarini kiritgan [Austin 1962: 94]. Aynan illokutiv akt kommunikativ-pragmatik intensiya bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, soʻzlovchining soʻrov, talab yoki vaʼda singari aniq maqsadini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Pragmatik maqsad bu tilshunoslikda soʻzlovchining gap yoki matn orqali nimaga erishmoqchi ekanligini ifodalovchi tushunchadir. Bu maqsad muloqot jarayonida, nutq vaziyatiga muvofiq ravishda, maqsadli natijaga erishish uchun til birliklaridan qanday foydalanishni ifodalaydi. Tilshunos olim O. G. Pocheptsov pragmalingvistikada maqsad tushunchasi haqida soʻz olib borar ekan, u *“nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad soʻzlovchi koʻzlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichi”* ekanligini taʼkidlab oʻtgan [Почепцов 1986: 75].

Matnni tushunish yoki uning pragmatik maʼnosini anglash, bir vaqtning oʻzida undagi xabarni turli nuqtayi nazardan koʻrib chiqish, baholash, shuningdek, matnning struktura va pragmatik rejasini tahlil qilishni oʻz ichiga oladi [Pardayev 2013: 58]. Soʻzlovchi oʻz pragmatik maqsadiga erishish uchun nutqiy strategiya tuzishi va unga mos taktika qoʻllashi talab etiladi. Bu jarayonda soʻzlovchi nafaqat fikrlarining mazmunini aniq va tushunarli ifodalashi, balki ularning tinglovchiga taʼsirchanligini oshirish ustida ham ishlaydi.

Matnda pragmatik maqsadning ifodalanishi pragmatik tahlilning asosiy qismini tashkil etadi. Maqsadning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshishi esa soʻzlovchining nutqiy aktlardan foydalanish qobiliyati, tilning ekspressiv, stilistik va obrazli imkoniyatlarini qoʻllay bilishi, shuningdek, tilning boshqa lisoniy vositalarini toʻgʻri tanlash mahoratiga bogʻliq.

Tilshunos olim Q. Omonovning fikricha, rasmiy matnning eng muhim xususiyati uning amaliy maqsadlarga yo'naltirilganligidadir [Omonov 2016: 21]. Bu shuni anglatadiki, bunday matn oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, o'z mazmuni va tuzilish jihatidan tugallangan xabar sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, har bir rasmiy hujjat o'ziga xos maqsadga xizmat qilib, aniq va ishonchli manba sifatida hayotimizning turli jabhalarida qo'llaniladi.

Rasmiy-idoraviy ish hujjatlarini tayyorlashda pragmatik maqsad muhim o'rin tutar ekan, bu uslubda adresantning maqsadi, ya'ni intensiyaning ifodalanishi, ushbu hujjatlar turini belgilashga asos bo'ladi. Hujjatlar matnida pragmatik maqsad turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda bir hujjat faqatgina bir maqsadni ifoda etish uchun xizmat qilsa, ba'zi holatlarda bir nechta maqsadlarni bir vaqtda yuzaga chiqarishga yo'naltiriladi. Bunday hujjatlar *ko'p maqsadli* yoki *poliintensional hujjatlar* deb nomlanadi.

Masalan, rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining katta qismini tashkil qilgan xatlarning ba'zi turlarida adresantning bir vaqtda bir necha pragmatik maqsadi ifoda qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, da'vo xatlari muayyan bir holatga nisbatan talab va e'tirozlarni aniq bayon etadi. Bu turdagi xatlar muallifning o'z pozitsiyasini himoya qilish va o'z talablarini yetkazish maqsadini ko'zlaydi. Boshqa tomondan, ilova xatlarda xatga ilova qilinayotgan hujjatlar haqida axborot berish vazifasi muhim o'rinni egallaydi. Bu hujjatlar adresant tomonidan keltirilgan qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarning mohiyatini tushuntirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda shunday xatlar ham uchraydiki, ularning mazmunida kafolat berish, eslatish va iltimos ma'nolari birlashadi [Aminov 2020: 351]. Masalan, bir xatda adresant bir vaqtning o'zida o'z majburiyatlarini bajarishga va'da berishi, shuningdek, muhim bir masalani eslatishi va kerak bo'lganda yordam so'rashi mumkin. Bunday xatlar adresantning ko'p qirrali maqsadlarini amalga oshirish uchun yozilganligi sababli pragmatik maqsadning turli jihatlarini qamrab oladi va ushbu hujjatlarning o'ziga xosligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, rasmiy-idoraviy ish hujjatlari pragmatik maqsadlarni ifoda etish orqali nafaqat muallifning niyatlarini aks ettiradi, balki ular o'zaro aloqalarni mustahkamlash va maqsadga erishish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, muayyan shaxslarning pragmatik maqsadini ifoda etuvchi rasmiy-idoraviy ish hujjatlarini bir necha turlarga ajratishimiz mumkin [Lutfullayeva 2020]. Bunday turlarga ajratish hujjatlarning o'ziga xos vazifalari va maqsadlariga ko'ra amalga oshiriladi. Quyida ularni batafsil ko'rib chiqishga harakat qilamiz :

1. Yakka shaxs maqsadini ifoda etuvchi ish hujjatlari. Ushbu hujjatlar faqat bitta shaxsning o'ziga xos maqsadlarini ifodalashga qaratilgan. Masalan, e'lonlar, arizalar, tilxatlar, vasiyatnomalar kabi hujjatlar, odatda, biror muayyan shaxsning talablari yoki xohishlarini aniq ko'rsatadi. Bu hujjatlar, shaxsning muayyan maqsadlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

2. Ikki shaxs maqsadini ifoda etuvchi ish hujjatlari. Bu turdagi hujjatlar ikki taraf o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi. Masalan, oldi-sotdi, ijara va boshqa turdagi shartnomalar, shaxslar o'rtasida kelishuvni aks ettiradi. Bunday hujjatlar har ikkala tarafning maqsadlarini ifoda etish va o'zaro manfaatlar asosida kelishuvga erishishni ta'minlaydi.

3. Bir necha shaxs va yakka shaxs maqsadini ifoda etuvchi ish hujjatlari. Bu hujjatlar esa bir nechta shaxslar o'rtasidagi aloqalar bilan bir qatorda, bitta shaxsning maqsadlarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, taklif xatlari va dalolatnomalar, bir necha shaxsning birgalikda harakat qilish maqsadini aks ettirishi mumkin.

4. Jamoa maqsadini ifoda etuvchi ish hujjatlari. Ushbu hujjatlar jamoa yoki guruhning umumiy maqsadlarini ifodalaydi. Masalan, bayonnomalar, shartnomalar va arizalar, jamoaning o'zaro kelishuvini va hamkorligini ko'rsatadi. Bunday hujjatlar, guruh ichida muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashgan shaxslarning maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi [Lufullayeva D.E. and others 2020: 27–34].

Har bir hujjat turi o'ziga xos vazifasiga ega bo'lib, muayyan pragmatik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tasnif rasmiy-idoraviy ish hujjatlarini tahlil qilishda va ularning maqsadlarini yanada aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, hujjatning nomi adresantning pragmatik maqsadini ham qisqacha ifodalaydi. Bu holat hujjatlarni lingvistik tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, agar hujjat "*tavsiyanoma*" deb nomlangan bo'lsa, uning mazmuni darhol tushunarli bo'lib, ma'lum bir shaxsning ijobiy jihatlarini biror tashkilotga yoki mansabdor shaxsga qaratilgan tarzda tasvirlash va uni tavsiya etishni nazarda tutadi deb taxmin qilish mumkin. Shu tarzda kommunikativ va pragmatik maqsad hujjatning vazifasiga mos keladi, ya'ni mazkur rasmiy-idoraviy hujjat matnining nima maqsadda tuzilganini aniqlashga yordam beradi. Demak, hujjatning nomi uning mazmuni va mavzusini oldindan belgilab berishga xizmat qilishi mumkin [Fayzullayev 2023: 32].

Biz tadqiqot obyekti sifatida tanlangan tavsiyanomalarda mualliflarning yakka shaxs nomzodlar haqida ma'lumot berish va ularni tavsiya etish kabi aniq maqsadlarga erishmoqchi bo'lganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, **tavsiyanoma** biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat turi hisoblanadi [Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. 2020: 305]. Bunday tavsiyanomalarda nomzodning o'qish yoki ish faoliyatidagi muvaffaqiyatlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari to'g'risida ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. Mualliflar tavsiyanomalarida nomzodning kelajakdagi imkoniyatlarini yoritish va uni kerakli joyda faoliyat yuritishga tayyorligini ta'kidlash orqali uning ijobiy tomonlarini ochib berishga harakat qiladilar. Shu sababli bunday tavsiyanomalarni yakka shaxs maqsadini ifoda etuvchi ish hujjatlari sirasiga kiritish mumkin. Qisqa qilib aytganda, bunday tavsiyanomalar mualliflarning o'z fikr va his-tuyg'ularini aks ettiradigan, aniq bir nomzodlarga nisbatan shaxsiy tavsiyalarini beradigan hujjatlardir. Ushbu tavsiyanomalar nomzodning

kelajakdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida tayyorlanganligi sababli ularni tayyorlash jarayoni muhim va mas'uliyatli hisoblanadi. Bundan tashqari, tavsiyanomalar nomzodning kasbiy mahorati darajasini ko'rsatish bilan birga, muallifning u bilan aloqalari va uning sifatlari to'g'risidagi ijobiy baholarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa nomzodning ishga taklif etilayotgan ishga mos ekanligini ko'rsatadi va uning ishga qabul qilinishi yoki amaliyotda ishtirok etishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, bunday tavsiyanomalar nafaqat yakka shaxs maqsadlarini ifoda etadi, balki nomzodlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunos O. G. Pochepsov intensiya tushunchasini chuqur o'rgangan holda uni ikki asosiy turga — *boshlang'ich* va *natijaviy* intensiyalarga bo'lishni taklif etadi [Почепцов 1986: 75]. O'zbek tilshunosi Sh. Safarov intensional tahlilning ushbu turi nutqiy aktning mazmunini to'liqroq anglash imkonini berishini ta'kidlagan edi [Safarov 2008: 74]. Unga ko'ra, rasmiy hujjatlar matnida adresantning boshlang'ich maqsadi *boshlang'ich intensiyada* o'z aksini topadi. Bu maqsad hujjat yozilishining asosiy sababini va maqsadini belgilaydi, ya'ni muallif nima uchun va qanday maqsadda ushbu hujjatni tayyorlaganini ko'rsatadi. Shuningdek, boshlang'ich maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan natijaviy maqsad esa *natijaviy intensiyada* o'z ifodasini topadi. Bu natijaviy maqsad muallifning boshlang'ich maqsadga erishish jarayonida ko'zlagan natijalarini anglatadi. Masalan, vafot etgan marhumning merosidan ulush so'rash maqsadida marhumning farzandi tomonidan yozilgan arizada nutq egasining *boshlang'ich maqsadi merosdan ulush olish haqidagi xohish-istagini ifoda etish* bo'lsa, ushbu holatda *natijaviy maqsad farzandning marhum otasidan qolgan merosdan ulush olishdir*. Bu ikki intensiya bir-birini to'ldirib, hujjatning umumiy mazmuni va maqsadini yanada ravshanlashtiradi. Umuman olganda, boshlang'ich intensiya muallifning maqsadini ifodalaydi, natijaviy intensiya esa shu maqsadga erishishdan kutilayotgan natijalarni taqdim etadi. Ushbu tushunchalar rasmiy hujjatlarni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi va adresantning fikrlarini, maqsadlarini yanada aniqroq ifodalashga yordam beradi. Masalan, ushbu holatlarni fransuzcha rasmiy-idoraviy hujjat matnlarida ko'rib chiqish uchun quyidagi tavsiyanoma matniga murojaat qilaylik. Ushbu hujjat Fransiyaning « *Lions Club de France* » tashkiloti tomonidan e'lon qilingan « AMICIF » loyihasida ishtirok etgan nomzodlar uchun o'qituvchilari tomonidan fransuz tilida yozilgan haqiqiy tavsiyanoma matnidano iborat. Shuningdek, haqiqiy tavsiyanoma xatlarida mualliflar shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida mualliflar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarning ayrim qismlari o'zgartirildi.

Palak XXX

XXX, Boulevard Massena,

Tour Palerma.

Paris 75013.

Portable - +33 7 54 48 XX XX

Email - XXXpalakXXXX@gmail.com

Paris, le 8 janvier 2022

Objet : Lettre de recommandation

Madame, Monsieur,

Je, soussignée, Palak XXX, Ancienne stagiaire de CIFIC 2019, aimerais appuyer sur la candidature de Mlle. Bhavika XXX au programme d'échange culturel avec CIFSE en 2022.

Mlle. Bhavika XXX a fini ses études avec un Licence des études de Gestion. Elle a bien réussi DALF C1 avec 60.5/100. Actuellement elle a poursuivi des cours de C1 ainsi que DU FLE (Diplôme Universitaire de Française Langue Etranger) avec 14.50/20 à Alliance Française de Bombay.

Mlle. Bhavika XXX est passionnée par la richesse de la culture française.

Selon moi, elle apporterait sans doute un plus à votre programme. Je suis certaine que son réel intérêt pour la France et ses études du français lui permettront de participer de façon très positive à votre stage.

Restant à votre disposition pour vous fournir tous les renseignements supplémentaires, que vous jugez nécessaires, je vous prie de croire, Madame,

Monsieur, l'expression de mes salutations distinguées.

Cordialement,

Palak XXX

Ancienne Stagiaire de CIFIC 2019.

(Signature)

Tadqiqotimiz obyektlaridan biri bo'lgan ushbu tavsiyanomada muallif (Palak XXX) nomzod (Mlle. Bhavika XXX) haqida ijobiy va ishontiruvchi ma'lumotlarni keltiradi. Muallif nomzodning boshqaruv sohasida bakalavr bosqichini muvaffaqiyatli yakunlaganligini ta'kidlagan holda, u « *Licence des études de Gestion* » dasturini tamomlaganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, muallif nomzodning fransuz tilini bilish darajasini aniqlashga imkon beradigan DALF C1 (Diplôme Approfondi de Langue Française) imtihonidan 100 balldan 60.5 ball olganligini keltirib o'tadi. Bu natija uning fransuz tilidagi bilim va malakalarini amaliyot talablariga mos ekanligini ishonchli tarzda aks ettiradi. Bundan tashqari, muallif Bombay Fransuz Alyansida tashkil qilingan C1 darajadagi darslarning yakuniy imtihonida nomzodning 20 balldan 14.5 ball to'plaganligini ham alohida ta'kidlaydi. Ushbu natijalar nomzodning fransuz tilidagi bilimlarining qoniqarli darajasini va o'qish jarayonida ko'rsatgan muvaffaqiyatini tasdiqlaydi. Muallifning ushbu tavsiyanomadagi maqsadi nomzodning ko'nikmalari va sifatlari haqida ijobiy *ma'lumot berishdir*. Bu uning « AMICIF » dasturi amaliyotiga qatnashish imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, muallifning *boshlang'ich maqsadi* nomzodning yuqori malakalari va o'qishdagi muvaffaqiyatlari haqidagi ma'lumotlarni uzatish orqali amaliyot ishtirokchisi sifatida qabul qilinishi uchun uning nomzodini qo'llab-quvvatlashdir.

Matnda keltirilgan « *Objet: Lettre de recommandation* » jumlasini muallifning ushbu tavsiyanomani yozishdan ko'zlagan *natijaviy maqsadi* nomzodni tavsiya qilishdan iborat ekanligini oydinlashtiradi.

Quyidagi fikrlar yordamida muallifning natijaviy maqsadi yanada aniqroq belgilanadi. U nomzodni Fransiyada amaliyotga qatnashishi uchun tavsiya qilayotganini va bu jarayonda unga katta ishonch bildirishini ifodalaydi. Masalan, « *Selon moi, elle apporterait sans doute un plus à votre programme* » degan jumla muallif tomonidan nomzodning dasturga qo'shadigan hissasi yuqori baholanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, « *Je suis certaine que son réel intérêt pour la France et ses études du français lui permettront de participer de façon très positive à votre stage* » jumlasini orqali muallif nomzodning Fransiya va fransuz tiliga bo'lgan qiziqishini ta'kidlab, bunga uning ishonchi komil ekanligini aytadi (*Je suis certaine que... – Ishonchim komilki...*). Bu esa uning amaliyotda faol ishtirok etishi va ijobiy natijalar ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan omillardan biri sanaladi. Ushbu fikrlar muallifning tavsiyanomasi orqali nomzodga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlab, uning amaliyotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tavsiyanoma matnida tilshunos olim Sh. Safarov ta'riflab o'tgan nutqiy muloqot maqsadining 2 sathini ham ajratish mumkin [Safarov 2008: 79], ya'ni nomzod haqidagi ma'lumotlar *axborot uzatish* ko'rinishida bo'lsa, nomzodni dasturga *tavsiya qilishi kommunikativ-pragmatik maqsad* sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu holatda axborot uzatish jarayoni xabar berish bilan chegaralanmaydi, aksincha, adresatning talabini, qiziqishini qondirish maqsadi ham bu harakat ijrosi orqali namoyon bo'ladi. Muallif yuqoridagi tavsiyanoma xatini yozishdan oldin « AMICIF » dasturi doirasida tashkil etilgan amaliyotga qabul qilinish talablarini chuqur o'rganib chiqqan. U bu jarayon bo'yicha kerakli barcha ma'lumotlarni yig'ib, talablar bilan to'liq tanishgan. Ushbu amaliyotga qabul qilinishi uchun talab etiladigan ko'nikmalar va malakalar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgani uning tavsiyanoma xatida keltirilgan fikrlarining asosli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Tavsiyanomalarda muallif matn yozish jarayonida adresatga axborot uzatish va o'z maqsadlarini bildirishdan tashqari, unga ta'sir ko'rsatishga ham harakat qiladi. Bu jarayonda hujjat matnida *performativ xarakter* namoyon bo'ladi. Ma'lumki, *performativ* (lotincha *performs* — “yarataman”, “hosil qilaman”) — harakatga teng bo'lgan nutqiy aktlar. Ushbu termin keng qo'llanilishiga J. Ostin yaratgan nazariya sabab bo'lgan, u gaplarni performativ va tasdiqlovchi (konstativ) deb ajratgan (10, 335). Performativ gaplar so'zlovchining biror vazifani bajarishini ifodalaydi. Masalan, qasam ichish, buyruq berish, uzr so'rash kabi holatlar performativ gaplar orqali amalga oshiriladi. Bu gaplarni aytishning o'zi bilan biron bir harakat sodir bo'ladi. Masalan, “*Men bu nikohni haqiqiy deb e'lon qilaman*”. Bu holatda “*Nikoh e'lon qilinadi*”. Ya'ni harakat bajariladi. Shuningdek, Sh. Safarov matnning performativ xarakteri haqida shunday fikrni bildirib o'tgan: “... *performativ tuzilmalarda axborot oddiygina uzatilib qolmasdan, balki tinglovchilarga tezda ta'sir o'tkazish, ularni javob harakatiga undash maqsadlari aniq namoyon bo'ladi*” [Почепцов 1986: 82]. Biz tahlil qilayotgan tavsiyanomada ham shu holatlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, «...*Je peux attester avec une*

grande conviction qu'elle contribuera pleinement au déroulement du CIFSE et qu'elle partagera ensuite ses acquis avec autrui. Je la parraine ainsi vivement pour le stage et espère recevoir une réponse favorable de votre part. ...». Tavsianomaning bu qismidagi «...*Je peux attester avec une grande conviction qu...* » (Men buni katta ishonch bilan tasdiqlashim mumkinki...) va «...*Je la parraine ainsi vivement pour le stage...* » (Men unga amaliyot uchun homiylik qilaman) kabi jumlar ham performativ tuzilmalarni hosil qilyapti. Muallifning maqsadi nomzodning ijobiy fazilatlarini ta'kidlash va uning amaliyot davomida bu fazilatlar bilan amaliyot jarayoniga katta hissa qo'shishi mumkinligini ishonch bilan tasdiqlash bilan birga, mas'ul shaxsdan ijobiy javob kutyapti. (...*espère recevoir une réponse favorable de votre part...* — sizdan ijobiy javob olishga umid qilaman...) Bu holatda muallif nomzodning salohiyatini yana bir bor ta'kidlaydi va shu orqali adresatga uning qabul qilinishini ta'minlash uchun ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Ammo ushbu ta'sir hech qanday buyruq ma'nosiga ega emas. Buyruq kategoriyasi o'z kommunikativ xususiyatiga ko'ra buyurish, iltimos qilish, maslahat berish yoki nasihat qilish kabi ma'nolarni ifodalaydi [Suvonova 2023: 21]. Tavsianomalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqsak, buyruq ma'nosi bu kabi hujjatlar matnida uchramaydi.

Shunday qilib, til birliklaridan nutqda foydalanish orqali matn yaratiladi va so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi muloqot harakati belgilangan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchi tinglovchiga nutqiy ta'sir ko'rsatadi [Mannonova 2024: 528].

Yuqoridagi misolda rasmiy-idoraviy hujjatlarning yana bir xususiyatini — *aniqlik va oshkoralikni* ko'rishimiz mumkin (...*espère recevoir une réponse favorable de votre part...*). Bu holatda muallif adresatga maqsadini ochiq tarzda oshkor qilyapti, ya'ni undan to'g'ridan to'g'ri ijobiy javob kutyapti. Rasmiy ish hujjatlarida uzatilayotgan axborotlar va ularga yuklangan pragmatik maqsadlar ochiq-oshkora va aniq (eksplisit) tarzda ko'rsatiladi. Bu muallifning maqsadlarini aniq belgilab berishi orqali amalga oshadi.

Taqqoslash uchun aytishimiz mumkinki, badiiy va so'zlashuv uslublarida maqsad har doim aniq va oshkora bo'lavermaydi. Ko'p hollarda ular *implisit (yashirin)* tarzda paydo bo'ladi, bu esa maqsadni aniqlashni qiyinlashtiradi. Masalan, badiiy matnlarda muallif o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini yashirin shaklda ifoda etishi mumkin, bu esa o'quvchi tomonidan qanday talqin etilishiga bog'liq bo'lib qoladi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, mazmunan boshqa bo'lgan quyidagi tavsianoma matnini ko'rib chiqamiz. Mazmunan boshqa bo'lgan tavsianoma matnini ko'rib chiqish orqali tavsianomaning qanday qilib nomzodning ijobiy jihatlarini ochib berishi, shuningdek, adresatga ta'sir ko'rsatish uchun qanday usullardan foydalanishi mumkinligini tahlil qilamiz. Har bir tavsianoma o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlar muallifning tavsianoma yozishdagi aniq maqsadiga, shuningdek, tavsiya qilingan shaxsning tajribasi va qobiliyatlariga asoslanadi. Muallif tavsianomaning mazmunini va

uslubini, uni kimga va qanday holatda taqdim etishni maqsad qilib, o'z qarorlariga ko'ra shakllantiradi, shu sababli har bir tavsiyanoma bir-biridan farq qiladi.

Quyidagi tavsiyanoma haqiqiy ish tavsiyanomasi matni (professional yoki xizmat tavsiyanomasi) hisoblanib, bu hujjat « *Tourisme Sainte-Marie* » tashkiloti tomonidan « *Maison J.-A. Vachon* » tarjimonlik markazida ma'lum muddat davomida ish olib borgan xodim uchun yozilgan.

*Tourisme
Sainte-Marie*

Vendredi 14 février 2014

Objet: Lettre de recommandation

Madame, Monsieur,

Catherine XXX a occupé le poste de Guide-accompagnateur pour la Corporation de la Mise en Valeur de la Maison J.-A. Vachon durant 12 semaines du 3 juin au 23 août 2013.

Le défi pour un guide c'est d'échapper au ton routinier. Or, Catherine a réalisé ses prestations de guide de la Maison J.-A. Vachon avec rigueur et de façon exemplaire. Elle a été une guide volontaire, travaillante et consciencieuse. Elle a communiqué son enthousiasme aux visiteurs dans les deux langues et parfois même en espagnol ! Elle relève les défis confiés avec brio et en profite pour démontrer son sens de l'initiative. Je pense par exemple à la Semaine du Retour dans le temps, où elle a adopté un ton théâtral allant même jusqu'à mettre des costumes d'époque afin de personnifier les fondateurs ! Elle a su se montrer efficace durant ces 12 semaines.

Fiable, elle s'est acquittée de ses tâches avec beaucoup de dynamisme et de persévérance, sourire en prime ! Elle a démontré un grand intérêt tout au long de son mandat en notant les commentaires et questions des visiteurs et transmettait les informations recueillies aux membres de l'équipe.

En terminant, je n'hésiterais pas une seconde l'été prochain si Catherine exprimait le souhait de revenir passer la saison 2014 avec nous!

Je demeure disponible si vous voulez plus de détails sur ses réalisations.

(Signature)

Denise XXX

Agente de développement touristique

Directrice de la Maison J.-A. Vachon

Tourisme Sainte-Marie

270, avenue Marguerite-Bourgeoys Sainte-Marie XXXXX G6E 3Z3

418-387-XXXX 1-866-389-XXXX • [info@tourisme-sainte-](mailto:info@tourisme-sainte-XXXXX.ca)

XXXXX.ca

Ushbu tavsiyanoma Catherine XXX nomli shaxsning 2013-yil 3-iyundan 23-avgustgacha Maison J.-A. Vachon uchun ko'rsatilgan xizmatlarini ta'riflaydi.

Tavsiyanoma rasmiy-idoraviy hujjat bo'lib, uning pragmatik maqsadlari aniq ko'rinadi. Bu tavsiyanoma ham muayyan shaxsning kasbiy tajribasi va qobiliyatlarini yoritishga qaratilgan. Har bir tavsiyanoma nomzodning o'ziga xos fazilatlarini va ishdagi yutuqlarini ta'kidlaydi, lekin har birining mazmuni, uslubi va maqsadi farq qiladi. Bu yerda nomzodning ijodiy yondashuvi muhim loyihalarda ishtiroki yoki jamoa bilan ishlashdagi samaradorligini ko'rsatgan. Bunda muallifning o'z fikrlarini qanday ifoda etishi, nomzodning qobiliyatlarini qanday ta'kidlashi, shuningdek, adresatga qanday ta'sir ko'rsatishga intilayotgani o'ta muhimdir.

Ushbu tavsiyanomada muallif o'z fikrini aniq va tushunarli tarzda bayon etishi, shuningdek, nomzodning ma'lumotlarini to'g'ri va ishonchli keltirishi lozim. Muallifning *boshlang'ich maqsadi* – nomzodning ish faoliyatiga oid, shuningdek, ishga yaroqliligini va salohiyatini ta'kidlaydigan, adresatga aniq va ishonchli ma'lumotlarni berishdir. Muallif uning 12 haftalik ish davomida ko'rsatgan yutuqlari va qobiliyatlarini batafsil bayon etadi (*Le défi pour un guide c'est d'échapper au ton routinier. Or, Catherine a réalisé ses prestations de guide de la Maison J.-A. Vachon avec rigueur et de façon exemplaire. ... Elle a communiqué son enthousiasme aux visiteurs dans les deux langues et parfois même en espagnol!*). Bu holatda muallif nomzodning ijobiy hislatlarini ko'rsatish orqali nomzodning ushbu taklif qilinayotgan ishga loyiq ekanligi va uning ushbu sohada ko'p tajribaga egaligini tasdiqlaydi.

Muallif nomzodni « *volontaire, travaillante et consciencieuse* » deb ta'riflab, uning o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqi va mas'uliyatini yana bir bor yuqori baholaydi. Bu holat muallifning nomzodning kasbiy ko'nikmalarini ijobiy baholashni maqsad qilganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xodimning o'z ishini qanday qilib innovativ va ijodiy usulda bajarganini, masalan, tarixiy kostyumlar kiyishi va teatr uslubida ishlashi kabi misollar bilan ko'rsatadi (*Je pense par exemple à la Semaine du Retour dans le temps, où elle a adopté un ton théâtral allant même jusqu'à mettre des costumes d'époque afin de personnifier les fondateurs ! Elle a su se montrer efficace durant ces 12 semaines*). Bu xodimning taklif etilgan vazifalariga qanday yondashuvini va o'zini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiradi. Umuman olganda, ushbu tavsiyanoma nafaqat xodimning ish faoliyatini yoritadi, balki uning o'z ishiga bo'lgan munosabati, ijobiy fazilatlarini va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga bo'lgan ishonchini ham ifodalaydi.

Yuqoridagi tavsiyanoma nomzodning ijobiy hislatlarini sanagan holda, adresatni bu nomzodni ishga qabul qilishga undash maqsadida yoziladi. Ushbu holatda tavsiyanoma muallifi o'zining « *Je n'hésiterais pas une seconde...* » (*Men bir soniya ham ikkilanmas edim...*) degan jumlasini orqali nomzodga bo'lgan ishonchini aniq ifoda etadi. Bu so'zlar muallifning xodimning professional malakasi va ishga yondashuviga nisbatan yuqori bahosini ham ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ushbu ibora orqali muallif kelgusi yil ham nomzod bilan ishlash niyatini *ochiq* bayon etadi. Bu esa xodimning o'z ish joyida jamoaga qo'shgan hissassi, mas'uliyati va kelajakdagi salohiyatiga bo'lgan ishonchni yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, tavsiyanoma nomzodning qobiliyatlari va mehnati bilan ko'zga tashlanganligini, uning uzoq muddatli istiqbolida muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini qayd etadi. Demak, ushbu tavsiyanoma muallifning nomzodga bo'lgan yuksak e'tibori va ishonchini ifodalab, nomzodni yana ishga qabul qilishni rag'batlantirishga adresatni *ochiqdan ochiq* undashga xizmat qiladi. Bu muallifning *aniq va natijaviy maqsadini* ko'rsatadi.

Shunday qilib, yuqorida tilshunos olimlarning fikrlari va pragmatik intensiyaga yondashuvlariga tayangan holda, mazmunan ikki turga mansub tavsiyanoma matnlarida pragmatik maqsadning ifodalanishi bilan bog'liq turli holatlarni batafsil tahlil qilib chiqdik. Ushbu tahlillar davomida har bir turdagi matnlarda so'zlovchining kommunikativ-pragmatik maqsadlarini qanday ifoda etishi alohida e'tibor markazida bo'ldi.

Shuningdek, biz tadqiqotimiz doirasida boshqa bir nechta tavsiyanoma turlarini ham o'rganishga muvaffaq bo'ldik. Bular mazmun jihatidan oldingi ikki turdan farq qilsa-da, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday matnlarda ham pragmatik maqsadning ifodalanishi xuddi shunday tamoyillarga asoslangan. Ya'ni boshqa turdagi tavsiyanomalarda ham so'zlovchining maqsadlari, matn tuzilishi, stilistik vositalar hamda mazmunning muloqot maqsadlariga moslashuvi bir xil o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Biroq ushbu kichik ilmiy ishimizni muayyan chegaralar doirasida olib borishni maqsad qilgan holda, mazmunan boshqa turga mansub bo'lgan tavsiyanoma matnlarining tahlil natijalarini alohida o'rganish va taqdim etishni rejalashtirmadik. Shu sababli sizlarga hozirgi tadqiqot natijalarimizni faqat mazmunan ikki turga mansub tavsiyanoma matnlari bilan chegaralab taqdim etishga qaror qildik. Ushbu qarorimiz tadqiqotning aniq maqsadlari va asosiy mavzularidan chalg'imaslikka qaratilgan bo'lib, umid qilamizki, bu yo'nalish muloqotning pragmatik jihatlarini tushunishga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pragmatik maqsad so'zlovchining nutqiy strategiyasini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqsad so'zlovchining ma'lum bir natijaga erishish uchun tanlagan lisoniy vositalarini belgilaydi.

Hujjatlarda boshlang'ich va natijaviy maqsadlar aniqlanadi. Masalan, tavsiyanomalarda boshlang'ich maqsad axborot uzatish, ya'ni nomzodning ijobiy fazilatlarini ko'rsatgan holda uni tavsiya qilish bo'lsa, natijaviy maqsad esa uni belgilangan dasturga yoki ishga qabul qilinishini ta'minlashdir.

Tavsiyanoma matnlarida ham performativ nutq aktlari (maqsadni amaliy harakatga aylantiruvchi gaplar) muhim sanaladi. Tavsiyanomalarda bu aktlar orqali adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadi ham kuzatiladi.

Rasmiy hujjatlar adresantning aniq va ochiq maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, tavsiyanomalar matnida ham boshqa rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnidagi kabi uzatilayotgan axborotlar va maqsadlar aniq va oshkora ifodalanadi, bu esa tavsiyanomalarning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu aniqlik hujjatlarning professional va samarali bo'lishini ta'minlaydi, adresat va muallif o'rtasida to'g'ri muloqot va aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Natijada tavsiyanomalar ularning pragmatik maqsadlari va performativ xarakterlari bilan kommunikatsiyaning muhim vositalariga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, fransuz tilida tavsiyanomalar rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining vazifaviy jihatdan boyligini va har doim mualliflarning maqsadli yondashuvga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Davlat tilida ish yuritish. — T.: O'zbekiston nashriyoti, 2020. — 528 b.
- Austin J.L. How To Do Things With Words. — Oxford: Oxford Univ. Press., 1962. — 168 p.
- Fayzullayev X. Fransuz va o'zbek tillarida rasmiy-idoraviy hujjatlar nomenklaturasi va klassifikatsiyasi // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. — 2023. — № 1 (4). — B. 29–34. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp29-34>.
- Lufullayeva D.E. and others. Pragmatic features of official texts and documents of the uzbek language. ANGLISTICUM // Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. — 2020. — № 9 (7). — B. 27–34. — URL: <https://anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/2108>
- Lutfullayeva D.E. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. Monografiya. — Toshkent: Nodirabegim, 2020. — 78 b.
- Mannonova S. Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari // Farg'ona davlat universiteti. — 2024. — № 30 (2). — B. 526–529. — URL: <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3994>
- Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. O'quv-uslubiy qo'llanma. — Samarqand, 2013. — 104 b.
- Suvonova N. 2023. Imperativ paremiyalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (fransuz tili materialida) // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. — 2023. — № 1. — B. 20–28. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp20-28>.
- Омонов К. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомил (илк ва ўрта асрлар): филол.фан. д-ри...дисс. автореф. — Т.: ТДШИ, 2016. — 76 б.
- Остин Дж. Л. Три способа пролить чернила. Философские работы. — СПб., 2006. — 335 с.
- Почепцов О.Г. Основы прагматического описания предложения. — Киев: ВШ, 1986. — 115 с.

Сафаров Ш. Прагмалингвистика. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. — 300 б.

References

- Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. *Davlat tilida ish yuritish* (Business in the state language.), Tashkent: Uzbekistan, 2020, 528 p.
- Austin J. L. *Tri sposoba prolit' chernila. Filosofskiye raboty*. (Three ways to spill ink. Philosophical works), Saint-Petersburg, 2006, 335 p.
- Austin J.L. *How to Do Things with Words*, Oxford: Oxford University Press, 1962, 168 p.
- Fayzullayev X. *Foreign linguistics and language didactics*, 2023, No 1 (4), pp. 29–34. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp29-34>.
- Lufullayeva D.E. and others. *Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 2020, No 9 (7), pp. 27–34, available at: <https://anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/2108>
- Lutfullayeva D.E. *Mustakillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi tarakkiyoti* (The development of official-departmental work methods during the period of independence), Tashkent, Nodirabegim, 2020, 78 p.
- Mannonova S. *Fergana State University*, 2024, No 30 (2), pp. 526–529, available at: <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3994>
- Omonov K. *Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomili (ilk va urta asrlar)* (The emergence and development of the Turkic official style (early and middle ages)): extended abstract of candidate's thesis, Tashkent: TDSHI, 2016, 76 p.
- Pardayev Z. *Pragmatik lingvistika* (Pragmatic linguistics), Samarkand, 2013, 104 p.
- Pochepstov O. G. *Osnovy pragmaticheskogo opisaniya predlozheniya* (Basics of pragmatic description of a sentence), Kiev: VSh, 1996, 115 p.
- Safarov Sh. *Pragmalingvistika* (Pragmalinguistics), Tashkent: Uzbekiston Milliy encyclopedia, 2008, 300 p.
- Suvonova N. *Foreign linguistics and linguodidactics*, 2023, No 1, pp. 20–28. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp20-28>.